

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDINI O‘SIMLIKLAR KARANTINIDAGI
ZARARLI ORGANIZMLARDAN HIMOYA QILISH VA O‘SIMLIKLAR KARANTINI
SOHASIDA RUXSAT BERISH TARTIB-TAOMILLARIDAN O‘TISH TARTIBI
TO‘G‘RISIDAGI NIZOMLARNI TASDIQLASH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasining “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunlari va Vazirlar Mahkamasining ““Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2013-yil 15-avgustdagi 225-son qaroriga muvofiq, shuningdek, o‘simliklar karantini sohasida tadbirkorlik subyektlarining ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tishining yagona tartibini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi hududini o‘simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasini berish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitar sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar;

tadbirkorlik faoliyati subyektlari va aholi o‘rtasida ushbu qarorning maqsadlari, mohiyati va ahamiyatini keng yoritilishini ta’minlasinlar.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — qishloq va suv xo‘jaligi vaziri Z.T. Mirzayev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 29-yanvar,
65-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qaroriga
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi hududini o‘simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya
qilish tartibi to‘g‘risidagi**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi hududini o‘simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

degazatsiya — o‘simliklar karantini obyektlarini kimyoviy vositalar gazlari bilan zararsizlantirish (fumigatsiya) muddati tugagandan keyin ushbu germetik yopilgan obyektida zaharli gaz holidagi moddalarni yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlar;

karantin ruxsatnomasi — o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishiga yoki hududidan tranzit tarzida olib o‘tilishiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlovchi hujjat;

fitosanitar sertifikat — eksport qiluvchi mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning har bir transport birligiga beriladigan va o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotning o'simliklar karantinidagi obyektlar bilan zararlanmaganligini tasdiqlovchi xalqaro namunadagi hujjat;

fitosanitar talablar — o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni o'simliklar karantinidagi va boshqa zararli organizmlar bilan zararlanmagan bo'lishi va ushbu zararli organizmlarni tarqalishiga yo'l qo'yimaslikka qaratilgan chora-tadbirlar;

fumigatsiya — o'simliklar karantinidagi va boshqa zararli organizmlarni yo'q qilish maqsadida o'simliklar karantini obyektlarini kimyoviy vositalar gazlari bilan zararsizlantirish;

transport birligini ochish dalolatnomasi — o'simliklar karantini nazoratidagi import mahsulotlarining karantin ruxsatnomasida belgilangan joyga yetib kelganligini tekshirib, transport birligini ochish va o'simliklar karantini tekshiruvidan o'tkazish uchun beriladigan hujjat;

o'simliklar karantini — qishloq xo'jaligi va boshqa o'simliklar dunyosiga katta iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan o'simliklar karantinidagi zararli organizmlarning kirib kelishi, tarqalishi hamda zarar yetkazishining oldini olish va ularga qarshi kurash choralarini amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasi;

o'simliklar karantini ko'rigi dalolatnomasi — transport birligini ochish dalolatnomasi berilgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarda o'simliklar karantindagi va boshqa zararli organizmlar mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat;

o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar — o'simliklar, ularning qismlari, ekish materiallari, qayta ishlash mahsulotlari, o'simliklar karantinidagi zararli organizmlarni olib o'tuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar va yuklar;

o'simliklar karantini tekshiruvi — o'simliklar karantini obyektlaridagi zararli organizmlarni o'z vaqtida aniqlash maqsadida o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, sotish va qabul qilish joylarini hamda ularga tutash hududlarni, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan, o'rmon fondi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlarini tekshirish.

3. O'simliklar karantini tadbirlari O'zbekiston Respublikasining "O'simliklar karantini to'g'risida"gi [Qonuni](#), o'simliklar karantini qoidalari, boshqa qonun hujjatlari hamda fitosanitar talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

4. O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni yetishtirish, qayta ishlash, realizatsiya qilish hamda respublikaga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar o'simliklar karantini profilaktika chora-tadbirlarini o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

5. O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan va uning tashqarisiga olib chiqiladigan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar ro'yxati mazkur Nizomga [1-ilovaga](#) muvofiq belgilanadi.

2-bob. O'zbekiston Respublikasiga o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni olib kirish

6. O'zbekiston Respublikasiga o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni olib kirish O'zbekiston Respublikasining "O'simliklar karantini to'g'risida"gi [Qonuni](#), o'simliklar karantini qoidalari, boshqa qonun hujjatlari, fitosanitar talablari, ushbu Nizom hamda karantin ruxsatnomalarida belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

7. O'zbekiston Respublikasiga o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni olib kirishga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda Inspeksiya deb ataladi) tomonidan berilgan karantin ruxsatnomasi hamda eksport qiluvchi mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan fitosanitar sertifikat yoki guvohnomasi bo'lgan taqdirdagina ruxsat beriladi.

Vakolatli davlat organlari mavjud bo'lmagan eksport qiluvchi mamlakatdan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirishga Inspeksiya tomonidan har bir partiyaga alohida holda beriladigan karantin ruxsatnomasi bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

8. O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar davlat chegara maskanlarida o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan nazoratdan o'tkazilishi shart.

9. O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishi taqiqlangan yoki fitosanitar nazoratidan o'tkazilmagan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish hollari aniqlangan taqdirda, ushbu mahsulotlar o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan mutaxassislar ishtirokida zararsizlantirilib, bu haqida dalolatnoma tuziladi hamda manfaatdor tараflarga ma'lum qilinadi.

10. Pochta jo'natmalarida, shuningdek avtomobil, havo va temir yo'l transporti ekipaji a'zolari va yo'lovchilarining bagaji (qo'l yuki)da O'zbekiston Respublikasiga olib kirish yoki uning hududidan olib o'tish (tranzit) taqiqlangan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar mavjudligi aniqlansa, o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan mazkur mahsulotlar olib qo'yilishi va bagaj (qo'l yuki) egalari ishtirokida zararsizlantirilishi yoki yo'q qilinishi lozim. Bunda o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan ikki nusxada dalolatnoma tuzilib, uning bir nusxasi mahsulot egasiga topshiriladi.

11. O'zbekiston Respublikasiga chetdan kiritilishi mumkin bo'lmagan o'simliklarni ekish materiallari, o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar va ularning hududlari ro'yxatiga kiritilgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlardan istisno tariqasida, begona o'tlarning karantin turlari qayta ishlangan holda ozuqa, yem-xashak va ilmiy maqsadlarda respublikaga olib kirilishiga ruxsat beriladi.

12. O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va savdo vakolatxonalarining (keyingi o'rinlarda diplomatik vakolatxonalar deb ataladi) nomiga yuborilgan va O'zbekiston Respublikasiga kirib kelgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning namunalari umumiy asoslarda nazoratdan o'tkazilishi lozim.

13. Diplomatik vakolatxonalar vakillariga davlat chegarasidan o'tish vaqtida O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini to'g'risidagi qonun hujjatlari hamda o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni nazoratdan o'tkazish tartibi tushuntiriladi.

14. Diplomatik vakolatxonalar nomiga yuborilgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlardan o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan uning egasi (vakili) va yuk kelib tushgan joydagi bojxona organi xodimi ishtirokida laboratoriya tekshiruvi uchun namunalar olgan holda, ular o'simliklar karantini nazoratidan o'tkaziladi. Mazkur yuklarga eksport qiluvchi mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan fitosanitar sertifikat yoki guvohnomasi ilova qilingan bo'lishi lozim.

15. O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotning namunalari o'simliklar karantinidagi zararli organizmlar bilan zararlanish belgilari mavjud bo'lsa, ular ekspertiza uchun tegishli karantin laboratoriyalariga topshiriladi. Ushbu namunalarda karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalar, o'simlik kasalliklari hamda begona o'tlar mavjudligi aniqlansa, ularni zararsizlantirish yoki yuk jo'natuvchiga qaytarib yuborish shart, yuk jo'natuvchiga qaytarib yuborishning imkoniyati mavjud bo'lmasa yo'q qilinishi lozim. Bu haqida o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan alohida dalolatnoma tuziladi va manfaatdor tараflarga uch ish kunida ma'lum qilinadi.

16. Diplomatik vakolatxonalar nomiga oziq-ovqat sifatida foydalanish maqsadida kelib tushgan o'simlik mahsulotlari uchun fitosanitar sertifikat yoki guvohnomasi mavjud bo'lsa, laboratoriya tekshiruvidan o'tkazilgandan keyin karantindagi zararli organizmlar mavjud bo'lmasa, zararsizlantirilmagan holda ulardan foydalanishga ruxsat etiladi.

3-bob. O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar va transport vositalarini nazoratdan o'tkazish

17. O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar va transport vositalari o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan davlat chegarasidan o'tish joylarida tashkil etilgan o'simliklar karantini chegara maskanlarida nazoratdan o'tkaziladi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'simliklar karantini davlat inspektorlari O'zbekiston Respublikasiga transport vositalari (avtomobil, daryo va havo transporti hamda temir yo'l vagonlari va konteynerlari) orqali olib kirilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni hamda pochta jo'natmalarini qabul qilib olishda bevosita ishtirok etadilar.

(17-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-martdagi 136-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2021-y., 09/21/136/0207-son — 2021-yil 1-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

18. O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar tushirishga qadar birinchi marta (birlamchi) karantin ko'rigidan o'tkaziladi.

(18-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu mahsulotlarni ikkinchi marta (ikkilamchi) karantin ko'rigidan o'tkazish esa bojxona hujjatlari rasmiylashtiriladigan hududdagi o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan mazkur Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakldagi transport birligini ochish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan holda hamda bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida to'lov amalga oshirilgandan so'ng o'simliklar karantini ko'rigi yoki laboratoriya tekshiruvi o'tkazish uchun ulardan belgilangan tartibda namunalar olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

(18-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrda 1046-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Transport vositalari o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan birinchi marta (birlamchi) karantin ko'rigini o'tkazishda uning tashqi qismi va muhrlanmagan boshqa karantin nazoratidagi mahsulotlar olib kirishi mumkin bo'lgan joylari karantin ko'rigidan o'tkaziladi.

Karantin ostidagi mahsulotning karantin tekshiruvi o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan bojxona nazorati hududida ularni tushirish va bojxona identifikatsiya vositasini olib tashlash joyida o'rnatilgan tartibda karantin ko'rigi yoki laboratoriya tekshiruvi o'tkazish uchun karantin ostidagi mahsulotdan namuna olish orqali amalga oshiriladi.

(18-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qaroriga asosan xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

19. O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning yuzasida karantindagi zararli organizmlar mavjud bo'lmasa, o'simlik mahsulotlarining fitosanitar holatini aniqlash uchun o'simliklar karantini chegara maskanlari inspektorlari yuk partiyalaridan belgilangan tartibda namunalarni tanlab oladi va nazoratdan o'tkazadi.

Olingan namunalarda o'simliklar karantini ko'rigi yoki laboratoriya tekshiruvi natijasida o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarda o'simliklar karantinidagi va boshqa zararli organizmlar mavjud emasligi aniqlansa, ushbu yukdan foydalanish uchun o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan mazkur Nizomga 2a-ilovaga muvofiq shakldagi o'simliklar karantini ko'rigi dalolatnomasi rasmiylashtirib beriladi.

20. Yuk va transport vositalarida karantindagi zararli organizmlar borligi aniqlansa, ularning namunalari tasdiqlash uchun tegishli o'simliklar karantini laboratoriyalariga yuboriladi. Ushbu zararlangan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni belgilangan tartibda zararsizlantirish va yuk jo'natuvchiga qaytarib yuborishning imkoniyati mavjud bo'lmasa yo'q qilinishi lozim.

21. O'zbekiston Respublikasining chegara maskaniga yetib kelgan avtomobil, havo va temir yo'l transporti ekipaji a'zolari qo'l yukida o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlari bor-yo'qligini ko'rsatishlari va agar mavjud bo'lsa, ularni karantin nazoratidan o'tkazishlari shart.

22. Avtomobil, havo va temir yo‘l transporti vositalari va ularning yuk xonasini ochib ko‘rish chegara maskanidagi o‘simliklar karantini davlat inspektori talabiga binoan ushbu transport vositalarining vakillari, haydovchilar yoki yuk egalari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

23. O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelgan transport vositalari (avtomobil, daryo va havo transporti hamda temir yo‘l vagonlari va konteynerlari) o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlardan bo‘shatilganidan keyin transport egalari tomonidan, yuk olib borish mo‘ljallangan joyda esa yukni qabul qilib oluvchi tomonidan tozalanishi lozim.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-martdagi 136-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.03.2021-y., 09/21/136/0207-son — 2021-yil 1-apreldan kuchga kiradi)

24. Yuk bo‘shatilgan transport vositalarida karantindagi zararli organizmlar borligi aniqlansa, o‘simliklar karantini davlat inspektori ushbu transport vositalarini zararsizlantirish uchun ko‘rsatmalar beradi va bajarilishini nazorat qiladi.

25. Transport vositalaridagi karantindagi yoki boshqa xavfli zararli organizmlar bilan zararlangan oziq-ovqat zaxiralari o‘simliklar karantini davlat inspektorining ko‘rsatmalariga binoan transport vositalari bilan birgalikda to‘liq zararsizlantirilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lishi, omborxonalarda saqlanib plomba bosib qo‘yilishi lozim.

26. O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar ushbu Nizomning 18-bandida nazarda tutilgan ikkilamchi karantin ko‘rigidan o‘tkazilganidan keyin, laboratoriya ekspertizasi uchun zarurat bo‘lmasa, ushbu mahsulotlar kelib tushgan joydagi hududiy o‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan mazkur mahsulotdan foydalanish shartlari to‘g‘risida xulosa chiqariladi va bajarilishi shart bo‘lgan fitosanitar tadbirlari belgilanadi.

27. Karantin va boshqa xavfli zararkunandalar, o‘simlik kasalliklari va begona o‘tlar bilan zararlangan o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarga nisbatan zararsizlantirish va tozalashning samarali tadbirlarini qo‘llashning imkoni bo‘lmasa, ular belgilangan tartibda eksport qiluvchi mamlakatga qaytarilishi yoki yo‘q qilinishi (maxsus joyda yoqib yuborish yoki chuqur qazib ko‘mib tashlash yo‘li bilan) lozim.

28. O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar solingan pochta jo‘natmalari va banderollar O‘zbekiston Respublikasiga yetib kelganidan keyin o‘simliklar karantini nazorati va laboratoriya tekshiruvidan o‘tkazilishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

28¹. Karantin laboratoriya tekshiruvlari va tegishli ekspertiza o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar yuridik va jismoniy shaxslar hisobidan qoplanadi.

(28¹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

4-bob. O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasidan tranzit tarzida olib o‘tish

Oldingi tahrirga qarang.

29. O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar tranzit tarzida O‘zbekiston Respublikasi hududidan yopiq yoki izotermik, tashishga yaroqli va plombalangan vagonlarda, avtofurgonlarda, avtorefrejator yoki konteynerlarda Bojxona tranzit rejimi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq hamda o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni ochmasdan transport birligiga dalolatnoma berilgandan so‘ng olib o‘tiladi.

O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni ochmasdan transport birligiga dalolatnoma berish uchun haq undirilmaydi.

(29-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-sentabrdagi 787-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.09.2019-y., 09/19/787/3770-son)

30. O‘zbekiston Respublikasidan tranzit tarzda olib o‘tiladigan o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar nazoratdan o‘tkaziladi.

31. O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasidan tranzit tarzida olib o'tish:

o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning tovar partiyalari Inspeksiya tomonidan tranzit uchun beriladigan karantin ruxsatnomalarida belgilanadigan shartlar asosida (tranzit yukka ilova qilingan eksport qiluvchi mamlakatning fitosanitar sertifikati yoki guvohnomasi bo'lishi lozim);

pochta orqali, yo'lovchilarning qo'l yukida bo'lgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar o'simliklar karantini bo'yicha chegara maskanidagi o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan nazoratdan o'tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

5-bob. Transport vositalarini o'simliklar karantinidagi zararli organizmlardan zararsizlantirish va tozalash

Oldingi tahrirga qarang.

32. Transport vositalari (avtomobil, daryo va havo transporti hamda temir yo'l vagonlari va konteynerlari)ni o'simliklar karantinidagi zararli organizmlardan zararsizlantirish va tozalash zarurati o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan aniqlanadi.

(32-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-martdagi 136-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2021-y., 09/21/136/0207-son — 2021-yil 1-apreldan kuchga kiradi)

33. Transport tashkilotlari yoki yuk qabul qilib oluvchilar chegara maskanidagi o'simliklar karantini inspektorining ko'rsatmasi asosida o'simliklar karantini hududiy davlat inspeksiyalarining maxsus fumigatsiya bo'linmalariga zararsizlantirish tadbirlari o'tkazish uchun talabnoma beradi.

34. Chegara maskanlarida transport vositalarining barcha turlarida o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni fumigatsiya hamda degazatsiya qilish ishlari o'simliklar karantini hududiy davlat inspeksiyalarining maxsus fumigatsiya bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

35. Transport tashkilotlari va yuk qabul qilib oluvchilar tomonidan transport vositalari hamda yuklarni zararsizlantirish uchun zararsizlantirish talablari va texnika xavfsizligiga javob beradigan maxsus jihozlangan maydonlar va binolar ajratiladi.

36. O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar chet mamlakatlardan transport vositalarida zararsizlantirilgan holda jo'natilganda, O'zbekiston Respublikasi chegara maskanlaridagi o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan ularning degazatsiya sifati tekshiriladi.

37. Sitrus o'simliklar mevalarini refrejeratsiya qilish va ularni muzlatgich kameralarda zararsizlantirish yukni qabul qilib oluvchilar tomonidan o'simliklar karantini davlat inspektori nazoratida amalga oshiriladi.

38. Zararlangan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni fumigatsiya, degazatsiya, refrejeratsiya qilish yoki boshqa usullarda zararsizlantirish (tozalash, qaytarib yuborish yoki boshqa manzilga jo'natish, yo'q qilib tashlash), yuklarni, bagajlarni, pochta jo'natmalarini ochish yoki qadoqlash, ularni zararsizlantirish joylariga olib borish va u yerdan qaytarib olib kelish bilan bog'liq xarajatlar yukni qabul qilib oluvchilar hisobidan qoplanadi.

6-bob. O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlardan foydalanish shartlari va O'zbekiston Respublikasi hududida aniqlangan o'simliklar karantinidagi zararli organizmlarga qarshi kurashish

39. O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni yetishtiruvchi, tayyorlovchi, realizatsiya qiluvchi, qayta ishlovchi, eksport yoki import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mahsulotlar saqlanadigan omborxonalari har oyda bir marta hududiy o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari tomonidan karantin nazoratidan o'tkaziladi.

40. Zarur bo'lganda, o'simliklar karantini davlat inspektorining xulosasiga asosan xavfsizlik qoidalariga rioya etgan holda zararsizlantirish, tozalash va boshqa tadbirlar amalga oshiriladi.

41. O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni yetishtiruvchi, tayyorlovchi, realizatsiya qiluvchi, qayta ishlovchi yuridik va jismoniy shaxslar o'zlari joylashgan hududlarning fitosanitar tozaligini ta'minlash uchun o'simliklar karantini hududiy davlat inspeksiyalari bilan kelishib, mas'ul xodim ajratishlari shart. Ushbu xodim hududdagi o'simliklar va saqlanayotgan

o'simlik mahsulotlarining fitosanitar holati bo'yicha kuzatuv olib borishi, zararlanish yoki zararli organizmlar aniqlangan holatda esa zudlik bilan o'simliklar karantini davlat inspeksiyasiga xabar yetkazishi shart.

42. Transport vositalari va o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar saqlanib turgan joylar o'simliklar karantini davlat inspektori talabiga binoan yuk ortilgan transport tashkilotlarining vakillari, yuk egalari ishtirokida o'simliklar karantini ko'rigidan o'tkaziladi.

43. O'simliklar karantini davlat inspeksiyalarining ruxsatisiz joylarda o'simliklar karantini nazoratidagi import mahsulotlarni boshqa tashkilotlarga berib yuborish yoki boshqa hududlarga jo'natishga yo'l qo'yilmaydi.

44. O'zbekiston Respublikasidan olib chiqib ketiladigan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini bo'yicha tuzilgan xalqaro shartnomalariga, shuningdek, savdo shartnomalari va import qiluvchi mamlakatning fitosanitar talablariga javob berishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini to'g'risidagi xalqaro shartnomalari va import qilayotgan mamlakatning fitosanitar talablari to'g'risidagi ma'lumotlar Inspeksiya rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

45. O'zbekiston Respublikasi hududida aniqlangan o'simliklar karantinidagi zararli organizmlarga qarshi kurashning quyidagi usullari amalga oshiriladi:

o'simliklarning o'sish davrida uchraydigan karantindagi zararkunandalar, o'simlik kasallik qo'zg'atuvchilari va begona o'tlarga qarshi kimyoviy, mexanik hamda boshqa qiruvchi kurash chora-tadbirlari;

omborxonalar, yopiq bino va inshootlarda o'simliklarni karantindagi hasharot va kasalliklariga qarshi zararsizlantirish ishlari (fumigatsiya) va boshqa chora-tadbirlar;

omborxonalarda saqlanayotgan o'simlik karantini nazoratidagi mahsulotlarda karantindagi yoki zaharli begona o't-urug'lari aniqlansa, ular tozalanadi hamda chiqindilari yoqib yuborish yo'li bilan yo'qotiladi;

karantin nazoratidagi mahsulotlarda begona o't turi aniqlanib u zaharli bo'lmasa, ularni tozalash natijasida chiqqan chiqindi tegirmonda karantin begona o't-urug'larining unish qobiliyatini yo'qotish holatiga kelguncha maydalanib, chorva mollarini oziqlantirish uchun foydalanilishi mumkin;

urug', ko'chat yoki o'simlik mahsulotlarining karantin zararkunanda, kasallik yoki begona o't urug'i bilan zararlanganligi aniqlansa, ularni belgilangan tartibda zararsiz holga keltirish uchun barcha xarajatlar yuk egasining hisobidan amalga oshiriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoida

46. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasi hududini o'simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish tartibi to'g'risidagi **nizomga**
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan va uning tashqarisiga olib chiqiladigan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar ro'yxati

Oldingi tahrirga qarang.

TIF TN bo'yicha kodi	O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning nomi
I. Fitosanitar xavfi yuqori bo'lgan karantin ostidagi mahsulotlar	
0106	Tirik hayvonlar (kanalar, nematodalar, hashoratlar)
0106 41 000 8	asalarilar, ilmiy-tadqiqot maqsadlarida

0106 49 000 1	boshqalar, ilmiy-tadqiqot maqsadlarida
0601	Tuganaklar, piyozboshlar, tujanaksimon ildizlar, tujanak piyozlar, ildizpoya, jumladan, vegetativ tinim holatidagi, vegetatsiya yoki gullash davridagi sertarmoqlari; ildizsiz dengiz suvo‘tlaridan tashqari, sachratqining o‘simlik va ildizlari:
	piyozboshlar, tujanaklar, tujanaksimon ildizlar, tujanakpiyozlar, ildizpoya, jumladan, vegetativ tinim holatidagi sertarmoqlari;
0601 10 100 0	suvsumbullar
0601 10 200 0	nargizlar
0601 10 300 0	lolalar
0601 10 400 0	ilongullar
0601 10 900 0	boshqalar
	piyozboshlar, tujanaklar, tujanaksimon ildizlar, tujanakpiyozlar, ildizpoya, jumladan, vegetatsiya yoki gullash davridagi sertarmoqlari, o‘simligi yoki ildizi:
0601 20 100 0	sachratqi o‘simligi va ildizi:
0601 20 300 0	orxideyalar, gulisumbullar, nargislar va lolalar
0601 20 900 0	boshqalar
0602	Boshqa tirik o‘simliklar (jumladan, ildizlari), qalamchalar va parxishi (0602 90 1000 dan tashqari)
	ildiz otmagan qalamchalar va parxishi:
0602 10 100 0	tok
0602 10 900 0	Boshqalar
	iste‘mol qilinadigan mevali yoki yong‘oqli daraxtlar, butalar va butachalar, payvandlangan yoki payvandlanmagan:
0602 20 100 0	tok qalamchalari, payvandlangan yoki ildiz otgani
	boshqalar
0602 20 200 0	ochiq ildiz sistemali
0602 20 300 0	sitrusli
0602 20 800 0	boshqalar
0602 30 000 0	rododendronlar va azaliyalar, payvandlangan yoki payvandlanmagani
0602 40 000 0	atirgullar, payvandlangan yoki payvandlanmagani:
	boshqalar:

0602 90 200 0	ananas o'simligi
0602 90 300 0	sabzavot ekinlar o'simligi, yertutlar va qulupnaylar
	ochiq yer uchun o'simliklar:
	daraxtlar, butalar va butachalar:
0602 90 410 0	o'rmon daraxtlari
0602 90 450 0	ildiz otgan qalamchalar va yosh o'simliklar (nihollar)
	boshqalar:
0602 90460 0	ochiq ildiz sistemali
	boshqalar:
0602 90470 0	ignabargli va doimo yashil
0602 90 480 0	boshqalar
0602 90500 0	ochiq yer uchun boshqa o'simliklar
	yopiq yer uchun o'simliklar
0602 90 700 0	ildiz otgan qalamchalar va nihollar (kaktuslardan boshqa)
0602 90 910 0	g'unchali yoki gulli gullaydigan o'simliklar (kaktuslardan boshqa)
0602 90 990 0	boshqalar
0603	Barra quritilgan, bo'yalgan, oqartirilgan, shimdirilgan yoki boshqa usullarda tayyorlangan guldasta tuzash yoki manzarali maqsadlar uchun yaraydigan kesilgan gullar va g'unchalar
	Barra (yangisi):
0603 11 000 0	atirgul
0603 12 000 0	chinnigul
0603 13 000 0	orxideya
0603 14 000 0	xrizantema
0603 15 000 0	liliya (<i>Lilium spp.</i>)
0603 19 100 0	ilongullar
0603 19 700 0	boshqalar
0603 90 000 0	boshqalar
0604	Barra quritilgan, bo'yalgan, oqartirilgan, shimdirilgan yoki boshqa usullarda tayyorlangan guldasta tuzash yoki manzarali maqsadlar uchun yaraydigan

	barglar, novdalar va o'simlikning gulsiz hamda g'unchasiz boshqa qismlari, o'tlar, mox (yo'sin)lar va lishayniklar:
0604 20 200 0	rojdestvo bayrami daraxtlari
0604 20 400 0	ninabargli daraxtlar novdasi
0604 20 900 0	boshqalar
	boshqalar:
0604 90 910 0	quritilgan, keyingi qayta ishlov talab etilmaydigan
0701	Yangi yoki past haroratda saqlangan kartoshka
0701 10 000 0	urug'lik
	boshqalar
0701 90 100 0	kraxmal ishlab chiqarish uchun
	boshqalar
0701 90 500 0	yosh, 1-yanvardan 30-iyungacha
0701 90 900 0	boshqalar
0702 00 000	Yangi yoki past haroratda saqlangan pomidor
0703	Piyoz, shalot piyozi, sarimsoq, ko'k piyoz va boshqa piyozboshli sabzavotlar, barrasi (yangisi) yoki past haroratda saqlangani
0703 10 110 0	no'shpiyoz
0703 10 190 0	boshqalar
0703 10 900 0	shalot piyozi
0703 20 000 0	sarimsoq
0703 90 000 0	ko'k piyozi va boshqa piyozli sabzavotlar
0704	Bosh karam, gulkaram, kolrabi, barg karam va Brassica urug'iga mansub shunga o'xshash iste'mol qilinadigan sabzavotlar, barrasi (yangisi) yoki past haroratda saqlangani
0704 10 000 0	gulkaram va brokkoli
0704 20 000 0	bryusel karami
	boshqalar:
0704 90 100 1	oq boshli karam
0704 90 100 9	qizil boshli karam
0704 90 900 0	boshqalar

0705	Salat-piyoz (<i>Lactuca sativa</i>) va sachratqi (<i>Cichorium spp.</i>), barrasi (yangisi) yoki past haroratda saqlangani
	salat-latuk:
0705 11 000 0	boshli salat-latuk (boshli salat)
0705 19 000 0	boshqalar
	sachratqi:
0705 21 000 0	oddiy sachratqi (<i>Cichorium intybus</i> var. <i>foliosum</i>)
0705 29 000 0	boshqalar
0706	Sabzi, sholg‘om, shirin lavlagi, echkisoqol, selderey ildizi, rediska va boshqa shunga o‘xshash iste’mol qilinadigan ildizmevalar, barrasi (yangisi) yoki past haroratda saqlangani
0706 10 000 1	sabzi
0706 10 000 9	sholg‘om
0706 90 100 0	selderey ildizi
0706 90 300 0	oddiy xren (erqalampir) (<i>Cochlearia armoracia</i>)
0706 90 900 1	shirin lavlagi
0706 90 900 9	boshqalar
0707 00	Bodringlar va sapcha bodringlar, barrasi (yangisi) yoki past haroratda saqlangani
0707 00 050	bodringlar
0707 00 900 0	sapcha bodringlar
0708	Dukkakli sabzavotlar, po‘chog‘i archilgani yoki archilmagani, barrasi (yangisi) yoki past haroratda saqlangani
0708 10 000 0	no‘xat (<i>Pisum sativum</i>)
0708 20 000 0	loviya (<i>Vigna spp.</i> , <i>Phaseolus spp.</i>)
0708 90 000 0	boshqa dukkakli sabzavotlar
0709	Boshqa sabzavotlar, barrasi (yangisi) yoki past haroratda saqlangani
0709 20 000 0	sarsabil
0709 30 000 0	baqlajon (bodrijon)lar
0709 40 000 0	ildizli seldereydan boshqa seldereylar
	zamburug‘lar va tryufellar
0709 51 000 0	<i>Agaricus</i> urug‘idagi zamburug‘lar

	boshqalar
0709 59 100 0	lisichka qo'ziqorinning bir turi
0709 59 300 0	moxoviklar
0709 59 500 0	tryufeli
0709 59 900 0	boshqalar
	Capsicum yoki Pimenta urug'ining mevalari:
0709 60 100 0	shirin qalampir
0709 60 910 0	Capsicum urug'i, kapsitsin yoki qalampir bo'yoq moddasi ishlab chiqarish uchun mo'ljallanganlari
0709 60 950 0	efir moylari yoki rezinoidlarning sanoat ishlab chiqarishi uchun mo'ljallanganlari
0709 60 990 0	boshqalar
0709 70 000 0	ismaloq, Yangi Zelandiya ismalog'i, yirik ismaloq (bog' ismalog'i)
	boshqalar:
0709 91 000 0	artishoklar
0709 92 100 0	Moy ishlab chiqarishdan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun
0709 92 900 0	boshqalar
0709 93 100 0	qovoqchalar
0709 93 900 0	boshqalar
0709 99 100 0	salat-latuk (Lactuca sativa) va sachratqi (Cichorium spp.)dan boshqa salat sabzavotlar
0709 99 200 0	barg lavlagi va kardon
	maslinalar yoki zaytunlar
0709 99 400 0	kovullar
0709 99 500 0	oq zira
0709 99 600 0	shirin makkajo'xori
0709 99 900 0	boshqalar
0712	Quritilgan, butun, bo'laklar va parraklarga bo'lingan, maydalangan yoki kuqun holidagi, ammo keyingi ishlov berilmagan sabzavotlar
0712 90 110 0	ekish uchun duragay
0713	Quritilgan dukkakli sabzavotlar, shelled holidagilari, urug' po'sti archib tozalangan yoki tozalanmagan, yanchilgan yoki yanchilmagan

	noʻxat (<i>Pisum sativum</i>):
0713 10 100 0	ekish uchun
0713 10 900 0	boshqalar
0713 20 000 0	turk noʻxati
	loviya (<i>Vigna spp.</i> , <i>Phaseolus spp.</i>):
	<i>Vigna mungo</i> (L.) Nepper yoki <i>Vigna radiata</i> (L.) Wilczek loviya turlari
0713 31 000 1	mosh
0713 31 000 9	boshqalar
0713 32 000 0	mayda qizil loviya (adzuki) (<i>Phaseolus</i> yoki <i>Vigna radiata</i> (L.))
	oddiy loviya, jumladan, oq mayda urugʻli loviya (<i>Phaseolus vulgaris</i>):
0713 33 100 0	ekish uchun
0713 33 900 0	boshqalar
0713 34 000 0	Bambariya yer yongʻogʻi (<i>Vigna subterranea</i> yoki <i>Voandzeia subterranea</i>)
0713 35 000 0	xashaki noʻxat (gorox) (<i>Vigna unguiculata</i>)
0713 39 000 0	boshqalar
0713 40 000 0	yasmiq
0713 50 000 0	yirik urugʻli boqla (<i>Vicia faba</i> var. <i>major</i>) va mayda urugʻli boqla (<i>Vicia faba</i> var. <i>equine</i> , <i>Vicia faba</i> var. <i>major</i>)
0713 60 000 0	kaptar noʻxat (<i>Cajanus cajan</i>)
0713 90 000 0	Boshqalar
0714	Tarkibida kraxmal yoki inulinning miqdori yuqori boʻlgan maniok, maranta, salep, choʻchqa kartoshka, batat va shu kabi boshqa ildizmevalar hamda tugunak mevalarning barrasi (yangisi), muzlatilgani yoki quritilgani, butunlari, tilimchali kesilgani yoki granula shaklida❖i; sago palmasi oʻzagi
	maniok (kassava):
0714 10 000 1	isteʼmol qilishga moʻljallangan, dastlabki oʻramda sof ogʻirligi 28 kg dan koʻp emas, yo yangi butuni, yoki poʻchoqsiz muzlatilgani, parrak kesilgani yoki kesilmagani
0714 10 000 9	boshqalar
	shirin kartoshka yoki batat:
0714 20 100 0	isteʼmol qilishga moʻljallangan butun barralari (yangilari)
0714 20 900 0	boshqalar

0714 30 000 0	yams (<i>Dioscorea spp.</i>):
0714 40000 0	taro (<i>Colocasia spp.</i>):
0714 50000 0	karaib karami(<i>Xanthosoma spp.</i>):
0714 90200 0	maranta, salek va shunga o'xshash tarkibida kraxmal miqdori ko'p bo'lgan ildizmevalar va tugunak mevalar
0714 90 900 0	boshqa◈ar
0801	Kokos, Braziliya va keshyu yong'oqlari, yangisi yoki quritilgani, po'chog'i tozalanganlari yoki tozalanmaganlari, po'stli yoki po'stsiz
	kokos yong'oqlari:
0801 11 000 0	quritilgani
0801 12000 0	ichki po'sti bilan (endokarp)
0801 19 000 0	boshqalar
	braziliya yong'oqlari:
0801 21 000 0	po'choqli
0801 22 000 0	po'chog'i tozalangan
	keshyu yong'oqlari:
0801 31 000 0	po'choqli
0801 32 000 0	po'chog'i tozalangan
0802	Yangi yoki quritilgan, po'chog'i tozalangan yoki tozalanmagani, po'stli yoki po'stsiz yong'oqlar
	po'stli:
0802 11 100 0	achchiq
0802 11 900 0	boshqalar
	po'sti tozalangani:
0802 12 100 0	achchiq
0802 12 900 0	boshqalar
	o'rmon yong'og'i (<i>Corylus spp.</i>):
0802 21 000 0	po'choqlisi
0802 22 000 0	po'chog'i tozalangani
	yong'oqlar:
0802 31 000 0	po'choqlisi

0802 32 000 0	po‘chog‘i tozalangani
	kashtanlar (<i>Castanea spp.</i>):
0802 41 000 0	po‘choqlisi
0802 42 000 0	po‘chog‘i tozalangani
	pista:
0802 51 000 0	po‘stlisi
0802 52 000 0	po‘stidan tozalangani
	makadamiya yong‘og‘i:
0802 61 000 0	po‘choqlisi
0802 62 000 0	po‘choqdan tozalangani
0802 70 000 0	koli yong‘oqlari (<i>Cola spp.</i>)
0802 80 000 0	fanda yoki betel yong‘oqlari
	boshqalar:
0802 90 100 0	pekan
0802 90 500 0	kedr yong‘oqlari
0802 90 850 0	boshqalar
0803	Bananlar, jumladan plantaynlar, yangisi yoki quritilgani
0803 10	plantaynlar:
0803 10 100 0	yangisi
0803 10 900 0	quritilgani
0803 90	boshqalar:
0803 90 100 0	yangisi
0803 90 900 0	quritilgani
0804	Finiklar, anjir, ananaslar, avokado, gualayava, mango va mangostan yoki garsiniya, yangisi yoki quritilgani
	finiklar:
0804 10 000 1	yangisi
0804 10 000 9	quritilgani
	anjir:
0804 20 100 0	yangisi

0804 20 900 0	quritilgani
	ananaslar:
0804 30 000 1	yangisi
0804 30 000 9	quritilgani
0804 40 000 0	avokado
	guayyava, mango va mangostan yoki garsiniyalar:
0804 50 000 1	yangisi
0804 50 000 9	quritilgani
0805	Sitrus o'simliklar mevasi, yangi yoki quritilgani
	apelsinlar:
0805 10 200 0	shirin, yangi apelsinlar:
0805 10 800 0	boshqalar
	mandarinlar (jumladan, tanjerinlar va satsuma); Klemeninalar, vilkinglar va sitrus o'simliklarning shunga o'xshash duragaylari:
0805 21000 0	mandarinlar (jumladan, tanjerinlar va satsuma);
0805 22000 0	klementinlar
0805 29000 0	boshqalar
0805 40 000 0	greypfrutlar
	limonlar (Citrus limon, Citrus limonum) va Laymalar (Citrus aurantifolia, Citrus latifolia):
0805 50 100 0	limonlar (Citrus limon, Citrus limonum)
0805 50 900 0	laymalar (Citrus aurantifolia, Citrus latifolia):
0805 90 000 0	boshqalar
0806	Uzum, yangisi yoki quritilgani
	yangisi:
0806 10 100 0	iste'mol qilinadigan navlari
0806 10 900 0	boshqalar
	quritilgani:
0806 20 100 0	qora kishmish
0806 20 300 0	sulton

0806 20 900 0	boshqalar
0807	Qovunlar (jumladan, tarvuzlar) va papayya, yangisi
	qovunlar (jumladan tarvuzlar):
0807 11 000 0	tarvuzlar
0807 19 000 0	boshqalar
0807 20 000 0	papayya
0808	Olmalar, noklar va behi, yangisi
	olmalar:
0808 10 100 0	sidra ishlab chiqarish uchun (16-sentabrdan 15-dekabrgacha)
0808 10 800	boshqalar
	noklar:
0808 30 100 0	1-avgustdan 31-dekabrgacha ko'p miqdorda perri yoki nok sharbatini ishlab chiqarish
0808 30 900 0	boshqalar
0808 40 000 0	behi
0809	Abrikoslar, olcha va gilos, shaftoli (jumladan, nektarinlar), olxo'ri va tern, yangisi
0809 10 000 0	abrikoslar
	olcha va gilos:
0809 21 000 0	nordon olcha (Rrunus ctrasus)
0809 29000 0	boshqalar
	shaftolilar, jumladan, nektarinlar:
0809 30 100 0	nektarinlar
0809 30 900 0	boshqalar
0809 40 050 0	olxo'rilar
0809 40 900 0	tern
0810	Boshqa mevalar yangisi
0810 10 000 0	ertut va qulupnay
	buldurg'un, maymunjon, tut va loganov mevalari:
0810 20 100 0	buldurg'un (malina)
0810 20 900 0	boshqalar
	Qora, oq yoki qizil smorodina va krijovniklar:

0810 30 100 0	qora smorodina
0810 30 300 0	qizil smorodina
0810 30 900 0	boshqalar
	qizilcha, chernika va Vaccinium urug'ining boshqa mevalari:
0810 40 100 0	brusnika (Vaccinium vitis idaea I turining mevalari)
0810 40 300 0	Vaccinium myrtillus turining mevalari:
0810 40 500 0	Vaccinium macrocarpon va Vaccinium corymbosum turlarining mevalari
0810 40 900 0	boshqalar
0810 50 000 0	kivi
0810 60 000 0	durian
0810 70 000 0	xurma
	boshqalar:
0810 90 200 0	tamarind, akaju yoki qizil daraxt, anakardiya, lichi, jekfrut yoki non daraxti mevasi, sapodillae, kapambola, strastogullilar, pitayya
0810 90750 0	boshqalar
0813	Uzum, yangisi yoki quritilgani, boshqa mevalar yangisidan boshqa quritilgan mevalar; mazkur guruh yong'oqlari yoki quritilgan mevalari aralashmasi
0813 10 000 0	abrikoslar
0813 20 000 0	qora olxo'ri
0813 30 000 0	olmalar
	boshqa mevalar:
0813 40 100 0	shaftolilar, jumladan, nektarinlar
0813 40 300 0	noklar
0813 40 500 0	papayya
0813 40 650 0	tamarind, akaju yoki qizil daraxt, anakardiya, lichi, jekfrut yoki non daraxti mevasi, sapodillae, passiflora yoki strastogullilar, karambola va pitayya
0813 40 950 0	boshqalar
	mazkur guruh yong'oqlari yoki quritilgan mevalari aralashmasi:
	quritilgan meva aralashmalarining to'plamlari, 0801 — 0806 tovar pozitsiyalari (kokos, Braziliya va keshyu yong'oqlari, yangisi yoki quritilgani, po'chog'i tozalanganlari yoki tozalanmaganlari, po'stli yoki po'stsiz; bananlar, jumladan, plantaynlar, yangisi yoki quritilgani; finiklar, anjir, ananaslar, avokado, guayyava,

	mango va mangostan yoki garsiniya, yangisi yoki quritilgani; sitrus o'simliklar mevasi, yangi yoki quritilgani; uzum, yangisi yoki quritilgani)dan tashqari:
	qora olxo'risiz:
0813 50 120 0	papayya, tamarind, anakardiya yoki akaju, qizil daraxt, lichi, jekfrut yoki non daraxtining mevasi, sapodilla, passiflora yoki strastogullilar, karambola va pitayidan
0813 50 150 0	boshqalar
0813 50 190 0	qora olxo'ri bilan
	faqat quritilgan kokos, Braziliya va keshyu yong'oqlari quritilgani, po'chog'i tozalanganlari yoki tozalanmaganlari, po'stli yoki po'stsiz va quritilgan, po'chog'i tozalangan yoki tozalanmagani, po'stli yoki po'stsiz yong'oq aralashmalari:
0813 50 310 0	tropik yong'oqlardan
0813 50 390 0	boshqalar
	boshqa aralashmalar:
0813 50 910 0	qora olxo'ri yoki anjir bo'lmagan
0813 50 990 0	boshqalar
0901	Kofe, qovurilgani yoki qovurilmagani, kofeinli yoki kofeinsiz; kofe shulxasi va kofe doni qobig'i
	qovurilmagan kofe:
0901 11 000	kofeinli
0901 12 000	kofeinsiz
1001	Bug'doy va meslin
	qattiq bug'doy
1001 11 000 0	urug'lik
1001 19 000 0	boshqa
	boshqalar:
	urug'lik:
1001 91 100 0	spelta
1001 91 200 0	yumshoq bug'doy va meslin
1001 91 900 0	boshqalar
1001 99 000 0	boshqalar
1002	Javdar
1002 10 000 0	urug'lik
1002 90 000 0	boshqalar
1003	Arpa

1003 10 000 0	urugʻlik
1003 90 000 0	boshqalar
1004	Suli
1004 10 000 0	urugʻlik
1004 90 000 0	boshqalar
1005	Makkajoʻxori
	urugʻlik:
	duragay:
1005 10 130 0	uchlamchi duragaylar
1005 10 150 0	oddiy duragaylar
	boshqalar
1005 10180 1	qoʻshaloq duragaylar va topkross duragaylar
1005 10180 9	boshqalar
1005 10 900 0	boshqa
1005 90 000 0	boshqa
1006	Sholi (shu jumladan, guruch)
	sholi (xomashyosi):
1006 10 100 0	ekish uchun
1006 10 210 0,	boshqalar
1006 10 230 0,	
1006 10 250 0,	
1006 10 270 0,	
1006 10 920 0,	
1006 10 940 0,	
1006 10 960 0,	
1006 10 980 0	
1006 20 110 0,	sholi (oqlanmagan)
1006 20 130 0,	

1006 20 150 0,	
1006 20 170 0,	
1006 20 920 0,	
1006 20 940 0,	
1006 20 960 0,	
1006 20 980 0	
1006 30 210 0,	yarim oqlangan yoki to‘liq oqlangan, sayqallangan yoki sayqallanmagan, sirlangan yoki sirlanmagan
1006 30 230 0,	
1006 30 250 0,	
1006 30 270 0,	
1006 30 420 0,	
1006 30 440 0,	
1006 30 460 0,	
1006 30 480 0,	
1006 30 610 0,	
1006 30 630 0,	
1006 30 650 0,	
1006 30 670 0,	
1006 30 920 0,	
1006 30 940 0,	
1006 30 960 0,	
1006 30 980 0	
1006 40 000 0	yanchilgan guruch
1007	Don jo‘xori
	urug‘lik:

1007 10 100 0	duragay
1007 10 900 0	boshqalar
1007 90 000 0	boshqalar
1008	Grechixa, tariq va falaris urug‘lari. Boshqa boshqodoshlar
	marjumak
1008 10 000 1	urug‘lik
1008 10 000 9	boshqa
	tariq
1008 21 000 0	urug‘lik
1008 29 000 0	boshqa
1008 30 000 0	kanareyka tarig‘i
1008 40 000 0	rosichka (<i>Digitaria spp.</i>)
1008 50 000 0	kinoa yoki oqqush guruchi (<i>Chenopodium quinoa</i>)
1008 60 000 0	tritikale
1008 90 000 0	boshqa boshqolilar
1101 00	Bug‘doy uni yoki bug‘doy-javdar uni
	bug‘doy uni:
1101 00 110 0	qattiq bug‘doydan
1101 00 150 0	yumshoq bug‘doydan
1101 00 900 0	bug‘doy-javdar uni
1102	Bug‘doy yoki bug‘doy-javdardan boshqa boshqodoshlar donidan un
	makkajo‘xori uni:
1102 20 100 0	tarkibida og‘irligiga nisbatan moy miqdori 1,5 foizdan ko‘p bo‘lmagan
1102 20 900 0	boshqa
	boshqa:
1102 90 100 0	arpa uni
1102 90 300 0	suli uni
1102 90 500 0	guruch uni
1102 90 700 0	javdar uni

1102 90 900	boshqa:
1102 90 900 1	jo‘xori uni
1102 90 900 9	boshqa
1103	Yorma yirik, tortilgan un va boshoqdoshlar unidan granulalar
	yorma va yirik tortilgan un:
	bug‘doydan:
1103 11 100 0	qattiq bug‘doy unidan
1103 11 900 0	yumshoq va spelta bug‘doydan
	makkajo‘xoridan
1103 13 100 0	tarkibida moy miqdori 1,5 foizdan ko‘p emas
1103 13 900 0	boshqalar
	boshqa boshoqdoshlar donidan:
1103 19 200 0	javdardan yoki arpadan
1103 19 400 0	sulidan
1103 19 500 0	guruchdan
	boshqalar
1103 19 900 1	jo‘xoridan
1103 19 900 9	boshqa
	Granulalar:
1103 20 250 0	javdardan yoki arpadan
1103 20 300 0	sulidan
1103 20 400 0	makkajo‘xoridan
1103 20 500 0	guruchdan
1103 20 600 0	bug‘doydan
1103 20 900 0	boshqalar
1104	Boshqa usulda (masalan: oqshoq yoki yanchilgan ko‘rinishda po‘sti tozalangan, oqlangan yorma tayyorlash kabi) ishlov berilgan boshoqdoshlar doni (sholi va guruchdan tashqari). Boshoqdoshlar doni murtagi, butun, oqlangan, yorma ko‘rinishda yoki yanchilgani
	oqlangan don yoki yorma don:
	suli:
1104 12 100 0	yassilab oqlangan (plyushenoye)

1104 12 900 0	yorma tayyorlangan
	boshqa boshqodoshlar
1104 19 100 0	bug‘doyniki
1104 19 300 0	javdarniki
1104 19 500 0	makkajo‘xoriniki
	arpaniki
1104 19 610 0	yassilab oqlangan (plyushenoye)
1104 19 690 0	yorma tayyorlangan
	boshqalar
1104 19 910 0	guruch yormasi
1104 19 990 0	boshqalar
	boshqa ishlov berilgan don (masalan: oqshoq ko‘rinishda oqlangan yoki yanchilgan):
	suli yormasi
1104 22 400 0	archib oqlangan (shelushenoye), oqshoq qilingan yoki qilinmagan, yanchilgan yoki yanchilmagan
1104 22 500 0	oqlangan
1104 22 950 0	boshqalar
	makkajo‘xori
1104 23 400 0	archib oqlangan (shelushenoye), oqshoq qilingan yoki ishlov berilmagan, yanchilgan yoki yanchilmagan; oqlangan
1104 23 980 0	boshqa
	boshqa donlar:
	arpaniki:
1104 29 040 0	archib oqlangan (shelushenoye), oqshoq qilingan yoki qilinmagan, yanchilgan yoki yanchilmagan
1104 29 050 0	oqlangan
1104 29 080 0	boshqalar
	boshqalar:
1104 29 170 0	archib oqlangan (shelushenoye), oqshoq qilingan yoki ishlov berilmagan, yanchilgan yoki yanchilmagan:
1104 29 300 0	oqlangan
	qandaydir boshqa ishlov berishsiz yanchilgan:
1104 29 510 0	bug‘doyni

1104 29 550 0	javdarni
1104 29 590 0	boshqalar
	boshqalar
1104 29 810 0	bug‘doyni
1104 29 850 0	javdarni
1104 29 890 0	boshqalar
	boshqadoshlar doni murtagining butuni, yorma ko‘rinishda yassilangan yoki tuyilgani:
1104 30 100 0	bug‘doyniki
1104 30 900 0	boshqa boshqadoshlar
1106	Quritilgan dukkakli sabzavotlar, shelled holidagilari, urug‘ po‘sti archib tozalanganlari, sago palmasi o‘zagidan, tarkibida kraxmal yoki inulinning miqdori yuqori bo‘lgan maniok, maranta, salep, cho‘chqa kartoshka, batat va shu kabi boshqa quritilgan ildizmevalar hamda tugunak mevalar; kokos, Braziliya va keshyu yong‘oqlari quritilgani va po‘chog‘i tozalanganlaridan mayda va yirik tortilgan un va quritilgan dukkakli sabzavotlar kukuni:
1106 10 000 0	Quritilgan dukkakli sabzavotlar, shelled holidagilari, urug‘ po‘sti archib tozalanganlari
	sago palmasi o‘zagidan, tarkibida kraxmal yoki inulinning miqdori yuqori bo‘lgan maniok, maranta, salep, cho‘chqa kartoshka, batat va shu kabi boshqa ildizmevalar hamda tugunak mevalar
1107	Qizartirib qovurilgan yoki qizartirib qovurilmagan solod
	qizartirib qovurilmagan:
	bug‘doydan:
1107 10 110 0	un ko‘rinishda
1107 10 190 0	boshqalar
	boshqalar
1107 10 910 0	un ko‘rinishda
1107 10 990 0	boshqalar
1107 20 000 0	qizartirib qovurilgan
1201	Soya dukkaklari, yanchilgani yoki yanchilmagani
1201 10 000 0	ekish uchun
1201 90 000 0	boshqalar
1202	Yeryong‘oq, qovurilmagan yoki qandaydir boshqa usul bilan tayyorlanmagani, po‘chog‘i tozalangani yoki tozalanmagani, yanchilgani yoki yanchilmagani

1202 30 000 0	urugʻlik
	boshqalar:
1202 41 000 0	poʻchogʻi tozalanmagani
1202 42 000 0	poʻchogʻi tozalangani
1203 00 000 0	kopra
1204 00	Zigʻir urugʻlari, yanchilgani yoki yanchilmagani
	ekish uchun:
1204 00 100 1	zigʻir — uzun tolali
1204 00 100 9	zigʻir — gajak tolali
1204 00 900 0	Boshqalar
1205	Raps urugʻlari, yanchilgani yoki yanchilmagani
	tarkibida oz miqdorda kislota saqllovchi raps urugʻi yoki kolza
1205 10 100 0	ekish uchun
1205 10 900 0	boshqalar
	boshqalar:
1205 90000 1	ekish uchun
1205 90000 9	boshqalar
1206 00	Kungaboqar urugʻlari, yanchilgani yoki yanchilmagani
1206 00 100 0	ekish uchun
1206 00 910 0	poʻchogʻi tozalangan, poʻchogʻi kulrang, oq yoʻl-yoʻlli
1206 00 990 0	boshqalar
1207	Boshqa moyli ekinlarning urugʻlari va mevalari, yanchilgani yoki yanchilmagani
1207 10 000 0	palma yongʻogʻi va magʻzi
	gʻoʻza urugʻi:
1207 21000 0	ekish uchun
1207 29 000 0	boshqalar
1207 30 000 0	kanakunjut urugʻi
	kunjut urugʻi:
1207 40 100 0	ekish uchun

1207 40 900 0	boshqalar
	xantal urug'i:
1207 50 100 0	ekish uchun
1207 50 900 0	boshqalar
1207 60 000 0	maxsar urug'i (<i>Carthamus tinctorius</i>)
1207 70 000 0	qovun urug'i
	boshqalar:
	ko'knori urug'i:
1207 91 100 0	ekish uchun
1207 91 900 0	boshqalar
	boshqalar:
1207 99 200 0	ekish uchun
	boshqalar
1207 99 910 0	nasha o'simligi urug'lari
1207 99 960 0	boshqalar
1208	Moyli ekinlar (xantal urug'idan tashqari) urug'i yoki mevasidan mayda va yirik tortilgan un
1208 10 000 0	soya dukkaklaridan
1208 90 000 0	boshqalar
1209	Ekish uchun urug'lar, mevalar va sporalar
1209 10 000 0	qand lavlagi urug'lari
	em-xashak o'simliklarining urug'lari:
1209 21 000 0	beda urug'lari
	sebarga (<i>Trifolium spp.</i>) urug'lari:
1209 22 100 0	qizil sebarga (<i>Trifolium pratense</i> L.)niki
1209 22 800 0	boshqalar
	betaga urug'lari:
1209 23 110 0	o'tloqbetagasi (<i>Festuca pratensis</i> Nuds.)niki
1209 23 150 0	qizil betaga (<i>Festuca rubra</i> L.)niki
1209 23 800 0	boshqalar

1209 24 000 0	o'tloq qo'ng'irboshi (<i>Poa pratensis</i> L.) urug'lari
	raygras (<i>Lolium multiflorum</i> Lam. <i>Lolium perenne</i> L.) urug'lari:
1209 25 100 0	italiya raygrasi (jumladan <i>Lolium multiflorum</i> Lam.) urug'lari
1209 25 900 0	yaylov raygrasi (<i>Lolium perenne</i> L.)niki
	boshqalar:
1209 29 450 0	o'tloq ajriqboshi urug'lari; vika urug'lari. Roa urug'iga mansub turlar (<i>Roa palustris</i> L., <i>Poa trivialis</i> L.); oq so'xta (<i>Dactylis glomerata</i> L.). Simbiriq (<i>Agrostis</i>) urug'lari
1209 29 500 0	lyupin urug'lari
1209 29 600 0	lavlagi (qand lavlagidan tashqari) urug'lari
30. Karantin ruxsatnomasini qayta rasmiylashtirish uchun ariza beruvchilarning karantin ruxsatnomasini berish to'g'risidagi arizasi Inspeksiya tomonidan ko'rib chiqilganda va karantin ruxsatnomasi qayta rasmiylashtirib berilganda mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan summaning yarim miqdorida yig'im undiriladi.

31. Inspeksiya karantin ruxsatnomasi yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda, yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat olingan kundan e'tiboran uch ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda karantin ruxsatnomasining dublikatini berishi shart. Inspeksiya tomonidan karantin ruxsatnomasining dublikatini berganlik uchun mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan summaning yarim miqdorida yig'im undiriladi.

5-bob. Karantin ruxsatnomasining amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va uni bekor qilish

32. Karantin ruxsatnomasining amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va uni bekor qilish "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22, 23 va 25-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

6-bob. Karantin ruxsatnomalari reyestri

33. Inspeksiya Karantin ruxsatnomalarining reyestrini yuritadi va ularni o'z rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

34. Karantin ruxsatnomalari reyestrda yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

karantin ruxsatnomasi berilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar: nomi, ularning tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (pochta manzili), telefon raqami;

karantin ruxsatnomasi berilgan jismoniy shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, pochta manzili, telefon raqami;

karantin ruxsatnomasining berilgan sanasi va raqami;

karantin ruxsatnomasining amal qilish muddati;

karantin ruxsatnomasini qayta rasmiylashtirishning, amal qilish muddatini uzaytirishning asosi va sanasi, amal qilishini to'xtatib turish va tiklash;

karantin ruxsatnomasining amal qilishini to'xtatish uchun asos va sana;

karantin ruxsatnomasini bekor qilishning asosi va sanasi;

karantin ruxsatnomasini to'xtatib turish, tugatish, qayta rasmiylashtirish hamda bekor qilishning asoslari va sanasi;

karantin ruxsatnomasi dublikatini berishning asoslari va sanasi.

35. Karantin ruxsatnomalarining reyestridagi ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslar uchun ochiq hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining "Ruxsatnoma hujjatlari" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga "real vaqt" rejimida ikki ish kunidan kechiktirilmagan muddatda joylashtirib boriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoida

36. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasini berish tartibi to'g'risidagi

nizomga

1-ILOVA

O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni respublikaga olib kirish va uning hududidan olib o'tishda ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi

SXEMASI

Oldingi tahrirga qarang.

Bosqichlar muddati	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddati
1-bosqich	Ariza beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs	Karantin ruxsatnomasini olish uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Inspeksiyaga bevosita yozma yoki "bir darcha" tamoyili asosida belgilangan shaklga muvofiq arizani taqdim etish.	O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish rejalashtirilgan kundan kamida 30 kun qolganida
2-bosqich	O'zbekiston Respublikasi	1) Yuridik va jismoniy shaxslarning karantin	Besh ish kun davomida

	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi	ruxsatnomasi berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish. 2) Yuridik va jismoniy shaxslarga Karantin ruxsatnomasini berish. 3) Karantin ruxsatnomasini berish rad etilgan holatlarda yuridik va jismoniy shaxslarga bu haqidagi ma'lumotni yozma shaklda, shu jumladan, axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborish.	
--	--	---	--

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-sentabrdagi 787-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2019-y., 09/19/787/3770-son)

O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasini berish tartibi to'g'risidagi
nizomga
2-ILOVA

**O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni
respublika hududiga olib kirish uchun karantin ruxsatnomasi
berish to'g'risida
ARIZA**

1. Yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma haqidagi ma'lumotlar (keraklisini belgilang☑):

- ☐ yuridik shaxs;
☐ jismoniy shaxs;
☐ yakka tartibdagi tadbirkor;

Raqami berilgan: kun oy yil

Guvohnoma bergan organ nomi: _____.

2. Mahsulotning nomi va miqdori:

T/r	Mahsulot nomi	O'lchov birligi (kg., tonna, litr, dona, metr/kub.)	Miqdori
1.			
2.			
...			

Olib kirilayotgan mahsulot to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar

3. Mahsulotning import shartnomasi to'g'risidagi ma'lumotlar:

a) raqami Sanasi: kun oy yil

b) mahsulot ishlab chiqaruvchi mamlakat va hududi: _____.

v) eksportyor davlat: _____.

g) transport vositasining turi: _____.

4. O'z omborxonasini zararsizlantirish dalolatnomasi to'g'risidagi ma'lumotlar:

Raqami Sanasi kun oy yil

5. O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasigacha yuk kirib kelishi to'g'risidagi ma'lumotlar:

a) yoʻnalishi: _____.

b) chegara maskanlari nomlari:

1. _____;

2. _____;

n. _____.

v) Yuk kelib tushgan karantin hujjatlari rasmiylashtiriladigan bojxona maskanining nomi: _____.

6. Mahsulotdan foydalanish maqsadlari:

1. _____;

2. _____;

n. _____.

7. Mahsulot yetib kelishi kutiladigan muddat:

Kun	<table border="1"><tr><td></td><td></td></tr></table>			oy	<table border="1"><tr><td></td><td></td></tr></table>			yil	<table border="1"><tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr></table>					dan
Kun	<table border="1"><tr><td></td><td></td></tr></table>			oy	<table border="1"><tr><td></td><td></td></tr></table>			yil	<table border="1"><tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr></table>					gacha
Muhr		imzo		F.I.O.										

Oldingi tahrirga qarang.

Oʻsimliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasini berish tartibi toʻgʻrisidagi

nizomga

3-ILOVA

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР
МАҲКАМАСИ ХУЗУРИДАГИ ЎСИМЛИКЛАР
КАРАНТИНИ
ДАВЛАТ ИНСПЕКЦИЯСИ

«ЎЗДАВКАРАНТИН»



STATE PLANT-QUARANTINE
INSPECTION UNDER
MINISTERS OF THE CABINET OF
UZBEKISTAN

«UZSTATEQUARANTINE»

КАРАНТИН РУХСАТНОМАСИ
КАРАНТИННОЕ РАЗРЕШЕНИЕ
QUARANTINE PERMIT

Ушбу карантин рухсатномаси берилди/ Карантинное разрешение выдано/ This quarantine license is given to:	Экспортёр давлат, худуд ва ташкилот номи /Наименование экспортирующей страны, региона и организации/Name of exporter country, region and organization:	№ Бе М
Махсулот хақида маълумот /Информация о продукции/Product information		
Махсулот номи, ТИФТН Коды, миқдори ва ўлчов бирлиги /Наименование, код ТН ВЭД количество и ед-измер продукции /Name, HS code, quantity and unit of the product		
***** ***** ***** ***** ***** ***** *****		
Олиб кириладиган карантин остидаги махсулотлар ушбу рухсатнома бўйича қуйидаги йўналишлар орқали ўтказиладиган. по настоящему разрешению подкарантинная продукция должна перевозиться по следующему маршруту: /The imported in accordance with this License must be transported along the following route		
Олиб кириш йўналиши ва чегара маскани/Пограничный пост и маршрут ввоза/ border post and route of entry	ТИФ назорат маскани/ контрольный пункт ВЭД / FEA border control	
Рухсатнома «Ўсимликлар карантини тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига асосан қўйилган. берилган: /Разрешение выдано на основании Закона Республики Узбекистан «О карантине растений», по заявл issued on the basis of the Law of the Republic of Uzbekistan «On Plant Quarantine», upon application		
Диккат!/Внимание!/Attention! Олиб кириладиган карантин остидаги махсулотлар, транспорт воситалари Ўзбекистон Республикасида учун карантин аҳамиятига эга бўлган ўсимлик зараркундалари, касалликлари ва бегона ўтлардан, шунингдек бошқа зарарли организмлардан ҳоли бўлиши шарт /Ввозимая подкарантинная продукция, транспортные средства свободны от вредителей, болезней растений и сорняков, имеющие карантинное значение для Республики Узбекистан, других вредных организмов согласно приложению/ Imported quarantine products and vehicles must be free from pests, weeds that have a quarantine significance for the Republic of Uzbekistan, including from other harmful organisms appendix		
Қўшимча маълумотлар/Дополнительная информация/Additional information		
		
Ўсимликлар карантини давлат инспекцияси / Государственной инспекция по карантину растений/		Ф.И.О

Izoh:	Primechaniye:	Note:
1. Karantin ruxsatnomasi karantin ostidagi mahsulotlarning belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishiga yoki hududidan tranzit tarzida olib o'tilishiga ruxsat berilganligini tasdiqlovchi hujjat va buyurtmachiga hamda tegishli hududiy o'simliklar karantini davlat inspeksiyasiga yuboriladi. 2. Karantin ruxsatnomasi O'zbekiston Respublikasi hududiga chetdan olib kirilayotgan yuklarga Karantin ko'rigi dalolatnomasi rasmiylashtirilgandan so'ng bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishga asos hisoblanadi. 3. Eksport qiluvchi davlatning fitosanitar sertifikatida quyidagilar ko'rsatilishi shart: a) zararsizlantirish usullari; b) o'simliklar karantini obyektlarining yo'qligi. 4. Transport vositasi va karantin ostidagi mahsulotlar belgilangan joyga keltirilishi bilan quyidagi karantin tadbirlari o'tkazilishi shart: a) Davlat karantin inspektori tomonidan ko'rikdan o'tkaziladi; b) Laboratoriya tekshiruv uchun namunalar olish; v) Laboratoriya tahlillari natijasiga ko'ra yukni chiqarib yuborish; g) O'simliklar karantini obyektlari aniqlanganda, yuk zararsizlantiriladi, qaytariladi yoki yo'q qilinadi 5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasi. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish Soxtalashtiruvchining o'zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan	1. Karantinnoye razresheniye yavlyayetsya dokumentom udostoverayumeye razresheniye na vvoz ili tranzit podkarantinnoy produkcii na territoriyu Respubliki Uzbekistan i napravlyayetsya zakazchiku i prichastnoy territorialno gosudarstvennoy inspeksii po karantinu rasteniy. 2. Karantinnoye razresheniye pri vvoze gruza na territoriyu Respubliki Uzbekistan yavlyayetsya osnovaniyem dlya tamojennogo oformleniya gruza posle oformleniya akta karantinnoy dosmotra. 3. V fitosanitarnom sertifikate strani eksportyora ukazat: a) metodi obezzarajivaniya b) otsutstviye obyektoy karantina rasteniy. 4. Po pribitiyu k mestu naznacheniya podkarantinnoy produkcii i transportnix sredstv, doljni bit provedeni sleduyuyeye karantinnie meropriyatiya: a) dosmotr Gosudarstvennimi inspektorami po karantinu rasteniy; b) otbor obrazov i predstavleniye v karantinnyu laboratoriyu; v) vipusk gruza posle polucheniya rezultatov ekspertizi. g) pri obnaruzhenii obyektoy karantina rasteniy gruz podlezhit obezzarajivaniyu, vozvratu ili unichtojeniyu. 5. Statya-228 Ugolovnoy kodeksa Respubliki Uzbekistan. Izgotovleniye, poddyelka ofitsialnogo dokumenta, predostavlyayuyego pravo ili osvoboddayuyego ot obyazannosti, v selyax ego ispolzovaniya samim	1. The Quarantine permit is a document certifying permission for the import of quarantine products into the territory of the Republic of Uzbekistan and is sent to the customer and territorial state plant quarantine inspection. 2. Quarantine permit during the importation of goods into the territory of the Republic of Uzbekistan considered as the basis for customs clearance of goods after registration of the quarantine inspection act. 3. The phytosanitary certificate of the exporting country should indicate: a) Disinfection methods b) Absence of quarantine pests 4. Upon arrival at the destination, quarantine products and transport vehicles should be subject to the following quarantine measures: a) Inspection by inspectors of the State Plant Quarantine Inspection under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. b) Sampling and submission to the Central Quarantine Laboratory c) Release of consignment after receiving the results of laboratory analysis. d) Upon detection of quarantine pests, the consignment is subject to disinfection, return or destruction. 5. Article 228 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The falsification of an official document granting or exempting from a duty, for the purpose of its use by the forger or another person, or the sale of such a document, the manufacture

rasmiy hujjatlar tayyorlashi yoki rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirishi yoxud bunday hujjatlarni sotishi, shunday maqsadlarda korxona, muassasa yoki tashkilotning qalbaki shtamlari, muhrlari, blankalarini tayyorlash yoxud sotish — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. 6. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq elektron hujjat qog‘oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo‘ladi. 7. Ruxsatnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling	poddelivatelem ili drugim litsom libo sbit takogo dokumenta, izgotovleniye poddelnix shtampov, pechatey, blankov predpriyatiy, uchrejdeniy, organizatsiy v tex je tselyax libo ix sbit — nakazivayetsya shtrafom ot pyatidesyati do sta bazovix raschetnix velichin ili obyazatelnimi obustvennimi rabotami do trex sot shestidesyati chasov libo ispravitelnimi rabotami do trex let. 6. V sootvetstviy s Zakonom Respubliki Uzbekistan “Ob elektronnom dokumentooborote” elektronniy dokument priavnivayetsya k dokumentu na bumajnom nositele i imeyet odinakovuyu s nim yuridicheskuyu silu. 7. Otskaniruyte QR-kod pri pomomni mobilnogo ustroystva dlya proverki podlinnosti informatsii.	of fake stamps, seals, letterheads of enterprises, institutions, organizations for the same purposes or their sale — shall be punishable by a fine from fifty to one hundred basic calculation units, or compulsory community service up to three hundred and sixty hours, or correctional labor up to three years. 6. In accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan “On electronic document management”, an electronic document is equivalent to a document on paper and has the same legal force. 7. QR code can be scanned using mobile device to verify the authenticity of the information.
---	---	--

KARANTIN RUXSATNOMASIGA ILOVA
PRILOJENIYE K KARANTINNOMU RAZRESHENIYu
ATTACNMENT SNEET FOR QUARANTINE PERMIT

Qo‘shimcha ma’lumotlar/Dopolnitelnaya informatsiya/Additional information

QR Code	KARANTIN RUXSATNOMASI KARANTINNOYE RAZRESHENIYE QUARANTINE PERMIT	№
		Berildi /Vidano/ Issued
		Muddati:/ Srok do/ Valid until

(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli [qarori](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son [qaroriga](#)
3-ILOVA

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitariya sertifikatlarini berish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

(3-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

1-bob. Umumiy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

1. Mazkur Nizom o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar eksporti uchun fitosanitar reeksport fitosanitariya va ichki fitosanitariya sertifikatlarini berish tartibini belgilaydi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar — o'simliklar, ularning qismlari, ekish materiallari, qayta ishlash mahsulotlari, o'simliklar karantinidagi zararli organizmlarni olib o'tuvchisi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar va yuklar;

fitosanitar sertifikat — eksport qilayotgan mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning har bir transport birligiga beriladigan va o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning o'simliklar karantinidagi obyektlar bilan zararlanmaganligini tasdiqlovchi hujjat.

Oldingi tahrirga qarang.

reeksport fitosanitar sertifikati — respublikaga import qilingandan so'ng boshqa davlatga eksport qilinadigan, shuningdek, respublika hududida saqlanadigan, qismlarga bo'linadigan, birlashtiriladigan va qayta qadoqlanadigan karantin ostidagi mahsulotlarning o'simliklar karantini obyektlari bilan zararlanmaganligini tasdiqlovchi xalqaro namunadagi hujjat;

ichki fitosanitariya sertifikati — O'zbekiston Respublikasi hududida yuklash, saqlash, tashish va realizatsiya qilinadigan karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qaroriga asosan xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

Oldingi tahrirga qarang.

3. Fitosanitariya va reeksport fitosanitariya sertifikatlari (keyingi o'rinlarda — fitosanitariya sertifikatlari) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari (keyingi o'rinlarda — hududiy inspeksiyalar) tomonidan beriladi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

4. Fitosanitar sertifikatida belgilangan talablarga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda Inspeksiya deb ataladi) va hududiy inspeksiyalar tomonidan nazorat qilinadi.

5. Fitosanitar sertifikati O'zbekiston Respublikasi hududidan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni eksport qilishda ushbu yuklarni karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar bilan zararlanmaganligini tasdiqlash maqsadida beriladi.

6. Fitosanitar sertifikati talab etiladigan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

7. Inspeksiya yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan fitosanitar sertifikatini olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zining rasmiy veb-saytida joylashtiradi.

8. Fitosanitar sertifikatini berish mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

2-bob. Fitosanitariya sertifikatlarini berishga doir talablar va shartlar

(2-bobning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

9. Quyidagilar fitosanitar sertifikatini berish uchun rioya etilishi majburiy talablar va shartlar hisoblanadi:

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'simliklar karantini to'g'risidagi qonun hujjatlariga, jumladan karantin qoidalariga, shuningdek fitosanitar talablarga rioya etilishi;

o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan o'z vakolati doirasida yuborilgan zarur fitosanitar talablar bajarilishi bo'yicha taqdimnomalarni bajarish, o'simliklar karantini obyektlari aniqlanganda o'simliklar karantini qoidalariga muvofiq o'rnatilgan cheklashlar va ko'rsatmalarga rioya qilish;

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar xalqaro fitosanitar talablarga, savdo shartnomalarida (bitimlarida) nazarda tutilgan fitosanitar shartlarga javob berishi va O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi mumkin bo'lmagan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar ro'yxatiga kirmagan bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar yetishtirilgan hududda karantin holati e'lon qilinmagan bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni import qiluvchi mamlakat hududiga O'zbekiston Respublikasi hududidan karantindagi zararli organizmlar kirib borish xavfi mavjud bo'lmashligi;

fitosanitar sertifikatini berish natijasida harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga yoki o'simlik dunyosi obyektlariga hamda ularning yashash muhitiga haqiqatda xavf solmasligi;

Oldingi tahrirga qarang.

fitosanitar sertifikatini olish uchun yuridik va jismoniy shaxslar arizani o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish rejalashtirilgan kundan oldin istalgan vaqtda tegishli hududiy inspeksiya taqdim qilishi.

(9-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-sentabrdagi 787-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2019-y., 09/19/787/3770-son)

10. O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni fumigatsiya qilish talab etilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslar fumigatsiya ishlarini o'tkazish uchun zarur bino va inshootlar bilan ta'minlaydilar.

Oldingi tahrirga qarang.

3-bob. Arizani ko'rib chiqish va fitosanitariya sertifikatlarini berish yoki fitosanitariya sertifikatlarini berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish

(3-bobning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Fitosanitar sertifikatini olish uchun yuridik va jismoniy shaxslar (keyingi o'rinlarda ariza beruvchilar deb ataladi) tegishli hududiy inspeksiya quyidagi elektron hujjatlarni taqdim etadi:

fitosanitar sertifikatini berish to'g'risida mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha elektron ariza;

fitosanitar sertifikatini berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi elektron bank hujjati.

Ariza beruvchidan ushbu bandedda nazarda tutilmagan hujjatlarning taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

12. Ariza hududiy inspeksiya ariza beruvchilar tomonidan bevosita, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, ular olinganligi haqidagi xabarnoma bilan birga taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan ariza ariza beruvchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

13. Fitosanitar sertifikatini olish uchun hududiy inspeksiyaga taqdim etilgan hujjatlar ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, ro'yxat hududiy inspeksiyalar tomonidan hujjatlar qabul qilingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan holda darhol ariza beruvchiga topshiriladi (yuboriladi).

14. Ariza beruvchilar tomonidan taqdim etilgan ariza barcha hollarda, toki vakolatli organ ularning ishonchsizligini isbotlamaguncha ishonchli hisoblanadi.

15. Ariza ko'rib chiqilganligi uchun:

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

40 kg gacha bo'lgan bir dona jo'natmaga (qo'l yuki) fitosanitariya sertifikatini olish uchun bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh foizi miqdorida;

(15-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(15-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

Oldingi tahrirga qarang.

500 kg gacha yuk ortilgan bir transport birligiga fitosanitariya sertifikati uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma foizi miqdorida;

1000 kg gacha yuk ortilgan bir transport birligiga fitosanitariya sertifikati uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh foizi miqdorida;

1000 kg dan ortiq yuk ortilgan bir transport birligiga fitosanitariya sertifikati olish uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdorida yig'im undiriladi.

(15-bandning uchinchi — beshinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

Ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im summasi Inspeksiyaning hisob raqamiga o'tkaziladi. Ariza beruvchi berilgan arizasidan voz kechgan yoki ariza ko'rib chiqilgandan so'ng fitosanitar sertifikatini berish rad etilgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

1000 kg dan ortiq yuk ortilgan bir transport birligiga reeksport fitosanitariya sertifikati uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdorida yig'im undiriladi.

(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

16. Hududiy inspeksiyalar arizani ko'rib chiqishda fitosanitar sertifikatini berishi uchun boshqa vakolatli organlar tomonidan beriladigan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olishi talab qilingan hollarda, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish soddalashtirilgan tartibda "bir darcha" orqali amalga oshiriladi, bunda hududiy inspeksiyalar mazkur hujjatlarni yuridik va jismoniy shaxslarning ishtirokisiz mustaqil ravishda oladi.

Oldingi tahrirga qarang.

17. Karantin ruxsatnomasini berish yoki berishni rad etish to'g'risidagi qaror ariza beruvchilar tomonidan ariza Inspeksiyaga kelib tushgan kundan boshlab besh ish kuni davomida qabul qilinadi va bu haqidagi tegishli hujjatni ariza beruvchilarga berish (yuborish) yoki bunday hujjatni berish rad etilganligi to'g'risida Inspeksiya uni yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilishi shart.

(17-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-sentabrdagi 787-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2019-y., 09/19/787/3770-son)

Oldingi tahrirga qarang.

17¹. 500 kg dan ortiq yuk ortilgan bir transport birligiga ichki fitosanitariya sertifikatini uchun bazaviy hisoblash miqdorining o'n foizi miqdorida yig'im undiriladi.

(17¹-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

Oldingi tahrirga qarang.

18. Fitosanitariya sertifikatini maxsus raqamlangan, himoyalangan holatda mazkur Nizomga 3-ilovaga, reeksport fitosanitariya sertifikatini 3a-ilovaga va ichki fitosanitariya sertifikatini 3b-ilovaga muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi.

(18-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

19. Quyidagilar fitosanitar sertifikatini berishni rad etish uchun asos hisoblanadi:

fitosanitar sertifikatini berilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlarning ariza beruvchilar tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganligi;

ariza beruvchilarning ruxsat berishga doir talablar va shartlarga muvofiq emasligi;

ariza beruvchilar tomonidan taqdim etilgan arizada noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

o'rganishlar, tadqiqotlar, tekshirishlar yoki boshqa ilmiy va texnik baholashlarning yakunlari bo'yicha asoslantirilgan salbiy xulosa olinganligi.

Ushbu bandedda nazarda tutilmagan boshqa holatlarda fitosanitar sertifikatini berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

20. Fitosanitar sertifikatini berishning rad etilganligi haqidagi xabarnoma ariza beruvchiga yozma shaklda, rad etish sabablari, qonun hujjatlarining aniq normalari va ariza beruvchi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, takroran ko'rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi). Ariza beruvchi rad etish sabablarini bartaraf etib va hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat fitosanitar sertifikatini berish rad etilganligi haqidagi yozma xabarnoma olingan kundan e'tiboran o'n ish kunidan kam bo'lmashligi kerak.

21. Ariza beruvchi fitosanitar sertifikatini berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablarni belgilangan muddatda bartaraf etgan taqdirda, hujjatlar takroran ko'rib chiqish, fitosanitar sertifikatini berish yoki uni berishni rad etish ariza beruvchidan rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar olingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida tegishli hududiy inspeksiya tomonidan takroran ko'rib chiqiladi. Ariza takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

22. Hujjatlarni takroran ko'rib chiqishda ariza beruvchiga ilgari yozma xabarnomada bayon qilinmagan rad etish sabablarining tegishli hududiy inspeksiya tomonidan keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi, ilgari ko'rsatilgan sabablar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq rad etish sabablarining keltirilishi bundan mustasno.

23. Fitosanitar sertifikatini berish rad etilganligi haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin ariza beruvchi tomonidan topshirilgan ariza yangidan topshirilgan hisoblanadi va tegishli hududiy inspeksiya tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

24. Ariza beruvchi fitosanitar sertifikatini berishning rad etilganligi, shuningdek tegishli hududiy inspeksiya mansabdor (vakolatli) shaxsining harakati (harakatsizligi) yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Oldingi tahrirga qarang.

4-bob. Fitosanitariya sertifikatlarini qayta rasmiylashtirish va dublikatini berish

(4-bobning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

25. Fitosanitar sertifikatini olgan yuridik shaxs qayta ro'yxatdan o'tganda, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgarganda, yetti ish kuni davomida tegishli hududiy inspeksiyaga fitosanitar sertifikatini qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi arizani, ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda topshirishi shart.

26. Fitosanitar sertifikatini olgan jismoniy shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida berilgan guvohnomada ko'rsatilgan familiyasi, ismi, otasining ismi yoki faoliyat ko'rsatadigan joyi o'zgargan taqdirda yetti ish kuni davomida tegishli hududiy inspeksiyaga fitosanitar sertifikatini qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi arizani, ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda topshirishi shart.

27. Fitosanitar sertifikati qayta rasmiylashtirilguniga qadar, uni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza bergan yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning huquqiy vorisi (merosxo'ri) fitosanitar sertifikatini qayta rasmiylashtirish to'g'risida berilgan, qabul qilib olingan sanasi haqida tegishli hududiy inspeksiyaning belgisi qo'yilgan ariza asosida unda ko'rsatilgan harakatni va (yoki) faoliyatni amalga oshiradi.

28. Fitosanitar sertifikati qayta rasmiylashtirilganda tegishli hududiy inspeksiya tomonidan fitosanitar sertifikatlar reyestriga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Fitosanitar sertifikatini qayta rasmiylashtirish arizaga tegishli hujjatlar ilova qilingan holda hududiy inspeksiya tomonidan qabul qilib olingan ish kuni davomida amalga oshiriladi.

29. Fitosanitar sertifikatini qayta rasmiylashtirish uchun ariza beruvchilarning fitosanitar sertifikatini berish to'g'risidagi arizasi hududiy inspeksiya tomonidan ko'rib chiqilganda va fitosanitar sertifikati qayta rasmiylashtirib berilganda mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan summaning yarim miqdorida yig'im undiriladi.

30. Hududiy inspeksiyalar fitosanitar sertifikati yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda, yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat olingan kundan e'tiboran bir ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda fitosanitar sertifikatining dublikatini berishi shart. Hududiy inspeksiyalar tomonidan fitosanitar sertifikatining dublikatini berganlik uchun mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan summaning yarim miqdorida yig'im undiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

5-bob. Fitosanitariya sertifikatlarining amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va uni bekor qilish

(5-bobning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

31. Fitosanitar sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, tugatish hamda uni bekor qilish "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22, 23 va 25-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

6-bob. Fitosanitar sertifikatlar reyestri

32. Hududiy inspeksiyalar Fitosanitar sertifikatlar reyestrini yuritadi va ularni o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi.

33. Fitosanitar sertifikatlar reyestrda yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

fitosanitar sertifikati berilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar: nomi, ularning tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (pochta manzili), telefon raqami;

fitosanitar sertifikati berilgan jismoniy shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, joylashgan yeri (pochta manzili), telefon raqami;

fitosanitar sertifikatining berilgan sanasi va raqami;

fitosanitar sertifikatining amal qilish muddati;

fitosanitar sertifikatini qayta rasmiylashtirishning asosi va sanasi, amal qilishini to'xtatib turish yoki tiklash;

fitosanitar sertifikatining amal qilishini to'xtatish uchun asos va sana;

fitosanitar sertifikatini bekor qilishning asosi va sanasi;

fitosanitar sertifikatini to'xtatib turish, tugatish, qayta rasmiylashtirish hamda bekor qilishning asoslari va sanasi;

fitosanitar sertifikati dublikatini berishning asoslari va sanasi.

34. Fitosanitar sertifikatlar reyestrda ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslar uchun ochiq hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining "Ruxsatnoma

hujjatlari avtomatlashtirilgan axborot tizimi”ga “real vaqt” rejimida ikki ish kunidan kechiktirilmagan muddatda joylashtirib boriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoida

35. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitar sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi
nizomga
1-ILOVA

O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni respublikadan olib chiqishda ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi

SXEMASI

Oldingi tahrirga qarang.

Bosqichlar		Subyektlar		Tadbirlar		Bajarish muddati
1-bosqich		Ariza beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs		Fitosanitar sertifikatini olish uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan hududiy inspeksiyaga yozma yoki “bir darcha” tamoyili asosida belgilangan shaklga muvofiq arizani taqdim etish.		O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish rejalashtirilgan kundan oldin istalgan vaqtda
2-bosqich		Hududiy inspeksiyalar		1)Yuridik va jismoniy shaxslarning fitosanitar sertifikati berish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqish. 2)Yuridik va jismoniy shaxslarga fitosanitar sertifikatini berish. 3) Fitosanitar sertifikatini berish rad etilgan holatlarda yuridik va jismoniy shaxslarga bu haqidagi ma’lumotni yozma shaklda, shu jumladan, axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborish.		Besh ish kun davomida

(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-sentabrdagi 787-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.09.2019-y., 09/19/787/3770-son)

O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitar sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida
nizomga
2-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

ARIZA

↓yuridik shaxs;

↓ jismoniy shaxs;

↓yakka tartibdagi tadbirkor;

Raqami

--	--	--	--	--	--	--	--	--

 berilgan: kun

--	--

 oy

--	--

 yil

--	--	--	--

2. Mahsulotning nomi va miqdori:

Olib kirilayotgan mahsulot to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar

raqami

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

 Sanasi: kun

--	--

 oy

--	--

 yil

--	--	--	--

d) Yukning markirovkasi (*keraklisini belgilang* ☒):

↓ Bor _____;

↓ Yo'q.

??

Elektron pochta manzili:

↓ Avtomobil transportu_____;

↓ Temir yo‘l transporti _____;

↓ Daryo transporti (kema va shu kabilar)_____;

↓ Havo transporti _____;

↓ Boshqa _____;

7. Yukni importyor mamlakatida karantin ko‘rigidan o‘tkazish joyining manzili:

Kun

--	--

 oy

--	--	--	--	--

 yil

--	--	--	--

Muhr _____ imzo _____ F.I.O. _____

(2-ilovaning matni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-martdagi 136-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.03.2021-y., 09/21/136/0207-son — 2021-yil 1-apreldan kuchga kiradi)

O‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitar sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi
nizomga
3-ILOVA

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ
ЎСИМЛИКЛАР КАРАНТИНИ
ДАВЛАТ ИНСПЕКЦИЯСИ
«ЎЗДАВКАРАНТИН»



STATE PLANTS QUARANTINE INSPECTION
UNDER THE CABINET OF MINISTERS OF
THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN
«UZSTATEQUARANTINE»

1. Экспортёр ва унинг манзили: Экспортёр и его адрес: Name and address of exporter:		2. ФИТОСАНИТАР СЕРТИФИКАТ ФИТОСАНИТАРНЫЙ СЕРТИФИКАТ PHYTOSANITARY CERTIFICATE UZ-EX № _____	
3. Юк қабул қилувчи ва унинг манзили: Получатель и его адрес: Declared name and address of consignee:		4. Кимга: Ўсимликлар карантини ташкилотига Кому: Организация по карантину растений To: Plant protection and quarantine organization of	
		5. Қайд этилган олиб кириладиган маскан: Заявленный пункт ввоза: Declared point of entry:	
6. Ишлаб чиқарилган жойи: Место происхождения: Place of origin:		7. Қайд этилган транспортда ташиш усули: Заявленный способ транспортировки: Declared means of conveyance:	
8. Маҳсулотнинг номи ва ўсимлиkning қайд этилган ботаник номи, миқдори: Наименование продукции и ботанических названий растений заявленное количество: Name of produce and declared botanical name of plants:		9. Жой сони ва қadoқнинг тавсифи: Количество мест и описание упаковок: Number and description of packages:	
10. Ушбу билан тасдикланадики, ўсимликлар, ўсимлик маҳсулотлари, ёки бошқа ўсимликлар карантини назоратидаги маҳсулотлар мавжуд бўлган усул ва (ёки) қондалар асосида текширилиб, карантин ва бошқа зарар етказиши мумкин бўлган организмлардан холи бўлиб, импорт қилинаётган давлатнинг фитосанитар талабларига жавоб беради. Настоящим удостоверяется, что растения, растительные продукты или другие подлежащие карантину материалы, описанные выше, были обследованы и/или проанализированы согласно существующим процедурам и признаны свободными от карантинных вредных организмов, перечисленных импортной договаривающейся стороной, и отвечают действующим фитосанитарным правилам импортной договаривающейся стороны, включая таковые и для регулируемых не карантинных вредных организмов. This is to certify that the plants, plant products or other regulated articles described herein have been inspected and/or tested to according appropriate official procedures and considered to be free from quarantine pests, specified by the importing contracting party and to conform with current phytosanitary requirements of the importing contracting party, including those for regulated non-quarantine pest.			
11. Қўшимча маълумотлар/Дополнительная информация/ Additional information :			
Зарарсизлаштириш / Обеззараживание/ Disinfection treatment:		Берилган жойи: Место выдачи: Place of issue:	
12. Ишлов усули: Способ обработки: Treatment method :		Сана/ Дата/ Date:	
13. Кимёвий восита (таъсир этувчи модда): Химикат (действующее вещество): Chemical (active ingredient)	14. Давомийлиги ва ҳарорати: Экспозиция и температура: Duration and temperature	Ўсимликлар карантини давлат инспектори: Государственный инспектор по карантину растений: State inspector for plant quarantine :	
15. Концентрацияси: Концентрация: Concentration:	16. Сана/ Дата/ Date/		
17. Қўшимча маълумот: Дополнительная информация: Additional information :			
		Имзо Подпись Signature	
		М.Ў МП Stamp	

Izoh. Ushbu fitosanitar sertifikatini bilan yukka tegishli bo'lgan har qanday moliyaviy javobgarlik O'simliklar karantini xizmati yoki uning xodimi hamda vakillari zimmasiga yuklatilmaydi.

Primechaniye. Nikakix finansovix obyazatelstv v otnoshenii nastoyashnego sertifikata i gruzu ne nalagayetsya na slujbu po karantinu rasteniy ili na kogo-libo iz eye inspektorov ili predstaviteley.

Note. No financial liability with respect to this certificate shall attach to Uzmainstatequarantine or to any inspectors and representatives

Oʻsimliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitar sertifikatini berish tartibi toʻgʻrisidagi
nizomga
3a-ILOVA

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ
ЎСИМЛИКЛАР КАРАНТИНИ
ДАВЛАТ ИНСПЕКЦИЯСИ
«ЎЗДАВКАРАНТИН»



STATE PLANTS QUARANTINE INSPECTION
UNDER THE CABINET OF MINISTERS OF
THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN
«UZSTATEQUARANTINE»

1. Экспортёр ва унинг манзили: Экспортёр и его адрес: Name and address of exporter:		2. ФИТОСАНИТАР СЕРТИФИКАТИ ФИТОСАНИТАРНЫЙ СЕРТИФИКАТ PHYTOSANITARY CERTIFICATE UZ-RE № _____	
3. Юк қабул қилувчи ва унинг манзили: Получатель и его адрес: Declared name and address of consignee:		4. Каерга: Ўсимликлар карантини ташкилотига Кому: Организации по карантину растений To: Plant protection and quarantine organization of _____	
		5. Қайд этилган олиб кириладиган маскан: Заявленный пункт ввоза: Declared point of entry:	
6. Ишлаб чиқарилган жойи: Место происхождения: Place of origin:		7. Қайд этилган транспортда ташиш усули: Заявленный способ транспортировки: Declared means of conveyance:	
8. Маҳсулотнинг номи ва ўсимликнинг қайд этилган ботаник номи, миқдори: Наименование продукции и ботанических названий растений заявленное количество: Name of produce and declared botanical name of plants:		9. Жой сони ва кадокнинг тавсифи: Количество мест и описание упаковки: Number and description of packages:	
10. - Ушбу билан тасдиқланадики/ Настоящим удостоверяется, что/ This is to certify that - юқорида кўрсатилган ўсимликлар, ўсимлик маҳсулотлари ёки бошқа карантин остидаги юкларни Ўзбекистон Республикасига импорт қилинган (реэкспорт давлати) дан/ растения, растительные продукты или другие регулируемые изделия, описанные выше, были импортированы в Республику Узбекистан (страна реэкспорта) из/ the plants, plant products or other regulated articles described above were imported into the Republic of Uzbekistan (country of re-export) from _____ давлати томонидан берилган фитосанитар сертификатни/ (страна происхождения), на основании Фитосанитарного сертификата/ (country of origin) covered by Phytosanitary Certificate No. _____, ҳақиқий фитосанитар сертификатни/ Оригинал/ original ☐ аслига тўғри нусхаси/ заверенная подлинная копия/ certified true copy ☐ ҳақиқий сертификатга қўшимча/ которого прилагается к этому сертификату/ of which is attached to this certificate ☐ , кадокланган/ что они упакованы/ that they are packed ☐ қайта кадокланган/ переупакованы/ repacked ☐ в оригинальных/ in original ☐ новых/ new ☐ контейнерлар фитосанитар талабларига жавоб беради/ контейнерах на основе оригинального фитосанитарного сертификата/ containers based on the original Phytosanitary Certificate ☐ қўшимча текширувлар асосида/ и дополнительной проверки/ and additional inspection ☐ , импорт қилувчи ҳамда келишувчи томонларнинг фитосанитар талабларига жавоб беради/ они считаются соответствующими действующим фитосанитарным требованиям страны-импортера и/ they are considered to conform with the current phytosanitary requirements of the importing country, and/ ҳамда Ўзбекистонда (реэкспорт давлати) сақлаш вақтида юкнинг зарарли организмлар билан зарарланиш хавфи мавжуд эмас/ при хранении в Республике Узбекистан (страна реэкспорта) груз не подвергался риску перезаражения или заражения/ during storage in the Republic of Uzbekistan (country of re-export), the consignment has not been subjected to the risk of infestation or infection. (*)Мавжуд бўлган квадратни белгиланг/ Вставить галочку в соответствующие поля/ Insert tick in appropriate boxes			
11. Қўшимча маълумотлар/ Дополнительная информация/ Additional information :		Берилган жойи: Место выдачи: Place of issue:	
Зарарсонлантириш /Обеззараживание/ disinfection treatment:		Сана/ Дата/Date	
12. Ишлов усули: Способ обработки: Treatment method:		Ўсимликлар карантини давлат инспектори: Государственный инспектор по карантину растений: State inspector for plant quarantine:	
13. Кимёвий восита (таъсир этувчи модда): Химикат (действующее вещество): Chemical(active ingredient)	14. Давомийлиги ва ҳарорати: Экспозиция и температура: Duration and temperature		
15. Концентрацияси: Концентрация:	16. Сана/ Дата/Date	Имзо Подпись Signature	
17. Қўшимча маълумот: Дополнительная информация: Additional information:		М.Ў МП Stamp	

Izoh. Ushbu фитосанитар сертификати bilan yukka tegishli bo'lgan har qanday moliyaviy javobgarlik O'simliklar karantini xizmati yoki uning xodimi hamda vakillari zimmasiga yuklatilmaydi.

Primechaniye. Nikakix finansovix obyazatelstv v otnoshenii nastoyayęego sertifikata i gruzha ne nalagayetsya na slujbu po karantinu rasteniy ili na kogo-libo iz eye inspektorov ili predstaviteley.

Note: No financial liability with respect to this certificate shall attach to Uzstatequarantine or to any inspectors and representatives

FRANCAIS

1. Nom et adresse de l'expéditeur
2. Certificat phytosanitaire N°
3. Nom et adresse déclarés du destinataire
4. Organisation de la protection des végétaux
5. Lieu d'origine
6. Moyen de transport déclaré
7. Point d'entrée déclaré
8. Marques des colis; nombre et nature des colis; nom du produit; nom botanique des plantes
9. Quantité déclarée
- 10.

11. Déclaration supplémentaire
Traitement de désinfection et/ou de désinfection
12. Traitement
13. Produit chimique (matière active)
14. Durée et température
15. Concentration
16. Date
17. Renseignements complémentaires
Lieu de délivrance
Date
Nom et signature du fonctionnaire autorisé
Cachet de l'Organisation

中文 / Chinese

- 1 出口商名称和地址
- 2 植物卫生证明
- 3 收货方名称和地址
- 4 从_____的植物保护机构的_____的_____
- 5 原产地
- 6 运输方式
- 7 入境地
- 8 包装品数目和性质、品名、_____、_____、_____
- 9 数量
- 10

- 11 补充声明
预防侵入_____或者预防感染处理
- 12 处理
- 13 化学_____ (活性材料)
- 14 浓度
- 15
- 16
- 17

法国及其任何机构或代表对此卫生证明均不承担财务责任。

ESPAÑOL / ESPAGNOL

- 1 Nombre y dirección del exportador
- 2 Certificado Fitosanitario
- 3 Nombre y dirección declarados del destinatario
- 4 Organización de Protección Fitosanitaria de A: Organización(es) de Protección Fitosanitaria de
- 5 Lugar de origen
- 6 Medios de transporte declarados
- 7 Punto de entrada declarado
- 8 Marcos distintivas, número y descripción de los bultos nombre del producto
- 9 Nombre botánico de las plantas
- 10 Cantidad declarada

- 11 Declaración adicional
Tratamiento de desinfección y/o desinfección
- 12 Tratamiento
- 13 Producto químico (ingrediente activo)
- 14 Duración y temperatura
- 15 Concentración
- 16 Fecha
- 17 Datos complementarios
Lugar de entrega / Nombre del funcionario autorizado / Sello de la

- 1 اسم وعنوان الجهة المستوردة
- 2 شهادة صحية نباتية
- 3 اسم وعنوان المرسل إليه المسموع
- 4 جهاز الحماية النباتية في
- 5 الجهاز (أجهزة) العملية التجارية
- 6 المنشأ
- 7 وسيلة النقل المستوردة
- 8 ملف النقل المستوردة
- 9 عدد ونوع الطرود
- 10 الكمية المأخوذة

- 11 اسم وعنوان الجهة المستوردة
- 12 اسم وعنوان المرسل إليه المسموع
- 13 اسم وعنوان المرسل إليه المسموع
- 14 اسم وعنوان المرسل إليه المسموع
- 15 اسم وعنوان المرسل إليه المسموع
- 16 اسم وعنوان المرسل إليه المسموع
- 17 اسم وعنوان المرسل إليه المسموع

لا تتحمل دولة فرنسا ولا أي من وكالاتها أو ممثلها أية مسؤولية مالية جراء هذه الشهادة.

Oldingi tahrirga qarang.

O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitar sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi
nizomga
3b-ILOVA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI O'SIMLIKLAR KARANTINI DAVLAT INSPEKSIYASI**



0000000 — SONLI ICHKI FITOSANITARIYA SERTIFIKATI

_____ O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi
Yuridik yoki jismoniy shaxs nomi va manzili: _____

_____ STIR: _____
Karantin ostidagi mahsulot nomi va miqdori: _____

Mahsulot yetishtirilgan joy: _____

Ushbu karantin ostidagi mahsulotlar O'zbekiston Respublikasining "O'simliklar karantini to'g'risida"gi 2018-yil 9-iyuldagi O'RQ-484-son Qonunining 6-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son **qaroriga** asosan karantin nazoratidan o'tkazildi hamda o'simliklar karantini obyektlaridan xoli ekanligi aniqlandi.

ZARARSIZLANTIRISH:
(fumigatsiya qilish)

Zararsizlantirish dalolatnomasi №: _____ Berilgan sanasi: _____



Qo'shimcha ma'lumotlar: _____

Davlat inspektori: _____ Imzosi: _____ Berilgan vaqti: _____

QR Code

(3b-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi 32-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.02.2018-y., 09/18/65/0639-son, 19.09.2019-y., 09/19/787/3770-son; 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son; 23.01.2021-y., 09/21/32/0058-son)